

TA'LIM JARAYONIDA GENDER STEREOTIPLARINI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY METODIK MEXANIZMLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-210-213>

Axunbabayeva Madinaxon Asror qizi

TDSHU, SHXTA, 3-kurs talabasi, Toshkent

madinaxonaxunbabayeva99@gmail.com

Ilmiy rahbar: Timur Sabirovich Sattarov

TDSHU katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida gender stereotiplarini bartaraf etishning metodologik asoslari va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'quv jarayonidagi “yashirin o'quv dasturi” hamda darsliklardagi gender assimetriyasi bilan bog'liq muammolar ochib berilgan. Muallif tomonidan qizlarning ilm-fanga, xususan STEM sohalariga qiziqishini oshirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar ilgari surilgan. Maqolada keltirilgan tavsiyalar ta'lim siyosatini transformatsiya qilish va ijtimoiy ongda gender tenglik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, stereotip, ta'lim siyosati, ijtimoiy ong, STEM, metodik mexanizm, transformatsiya.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРЕОДОЛЕНИЯ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье системно анализируются методологические основы и социально-педагогические механизмы устранения гендерных стереотипов в современной системе образования. В ходе исследования раскрываются проблемы «скрытого учебного плана» и гендерной асимметрии в содержании учебников. Автором выдвигаются инновационные педагогические подходы, направленные на повышение интереса девушек к науке, в частности к сферам STEM. Предложенные рекомендации служат трансформации образовательной политики и формированию культуры гендерного равенства в общественном сознании.

Ключевые слова: Гендерное равенство, стереотип, образовательная политика, общественное сознание, STEM, методический механизм, трансформация.

MODERN METHODOLOGICAL MECHANISMS FOR OVERCOMING GENDER STEREOTYPES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

ABSTRACT

This article systematically analyzes the methodological foundations and socio-pedagogical mechanisms for eliminating gender stereotypes in the modern education system. The research identifies issues related to the “hidden curriculum” and gender asymmetry within the content of educational textbooks. The author proposes innovative pedagogical approaches aimed at increasing girls' interest in science, particularly in STEM fields. The recommendations presented serve to transform educational policy and foster a culture of gender equality within the social consciousness.

Keywords: Gender equality, stereotype, educational policy, social consciousness, STEM, methodical mechanism, transformation.

KIRISH

Hozirgi yangi zamon muhitida inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning asosiy omillaridan biri ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash hisoblanadi. Bu borada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida: xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yilgan. Ma'lumki, har yili 11-fevral “Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni” sifatida nishonlanadi. Shu bois ham, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilib kelinmoqda, chunki davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Biroq, ta'lim jarayonida ongsiz ravishda shakllanib qolgan gender stereotiplari hali ham o'quvchi va talabalarning kasbiy tanlovi hamda shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu stereotiplar nafaqat darsliklar mazmunida, balki pedagogik muloqot uslubida ham namoyon bo'lib, ayollarning aniq va texnik fanlarga bo'lgan intilishini pasaytirishi mumkin. Mazkur maqolada ta'lim tizimida shakllangan ana shunday sun'iy to'siqlarni bartaraf etishning zamonaviy metodik mexanizmlari va ilmiy asoslangan yechimlari tahlil qilinadi.

Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan, gender stereotiplari o'quvchi ongida axborotni qabul qilish va qayta ishlashni chegaralovchi o'ziga xos “intellektual to'siq” vazifasini o'taydi. Ushbu kognitiv filtr o'quvchining o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini jinsi bilan bog'liq ijtimoiy kutilmalarga moslashtiradi, natijada o'quvchi o'zining haqiqiy intellektual salohiyatini emas, balki jamiyat tomonidan “ma'qullangan” qobiliyatlarini namoyon qilishga intiladi. Sandra Bem tomonidan ilgari surilgan “Gender sxemalari” nazariyasi, bolalikdan shakllanadigan jinsiy identifikatsiya jarayoni nafaqat biologik, balki chuqur ijtimoiy-kognitiv hodisa ekanligini isbotlaydi. Bolalar atrof-muhitdan olayotgan ma'lumotlarini “erkaklik” va “ayollik” kategoriyalariga ajratar ekan, bu sxemalar keyinchalik ularning xulq-atvori va akademik qiziqishlarini boshqaruvchi asosiy stereotipik andozaga aylanib qoladi. “Yashirin o'quv dasturi” (Hidden Curriculum) mexanizmi: Ta'lim muassasalarida rasmiy o'quv rejasidan tashqari, o'qituvchining tana tili, ovoz ohangi va ongsiz kutilmalari orqali uzatiladigan “yashirin dastur” mavjud bo'lib, u gender tengsizligini yashirin ravishda qayta ishlab chiqaradi. O'qituvchi tomonidan dars jarayonida o'g'il bolalarga murakkab savollar bilan murojaat qilinishi va qizlardan faqat “namunali xulq” kutilishi, qiz bolada ongsiz ravishda intellektual passivlikni shakllantiradi. Bu holat qizlarning murakkab ilmiy muammolarni hal qilishda o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirib, ularni gumanitar va xizmat ko'rsatish sohalari bilan cheklanib qolishlariga sabab bo'ladi.

O'zbekiston va MDH darsliklarida kuzatilayotgan gender assimetriyasi shuni ko'rsatadiki, vizual va matnli axborot orqali bolaga “erkak — faol sub'ekt”, “ayol — yordamchi ob'ekt” tushunchasi mavjud. Ushbu assimetriya o'quvchi qizlarda uzoq muddatli kasbiy motivatsiyaning pasayishiga olib keladi, chunki ular darslik

sahifalarida o‘zlari uchun “muvaqqiyatli identifikatsiya modeli”ni topa olmaydilar. Darsliklardagi tasvirlarda erkaklarning asosan texnologik va boshqaruv sohalarida, ayollarning esa maishiy yoki parvarishlash ishlarida ko‘rsatilishi jamiyatdagi mehnat taqsimotining qat’iy jinsiy segregatsiyasini oqlaydi. Finlyandiya ta’lim tizimi (PISA reytingi bo‘yicha yetakchi) “Har bir bola uchun teng imkoniyat” tamoyiliga tayanadi, ya’ni ta’lim mazmunini ishlab chiqishda gender sezgirligi markaziy o‘rinda turadi. Finlyandiya Milliy ta’lim agentligi darsliklar va o‘quv materiallarini muntazam ravishda “gender ekspertizasi”dan o‘tkazadi. Agar darslikda ayollar faqat uy ishlari bilan band, erkaklar esa qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tasvirlangan bo‘lsa, bunday kitoblar qayta ishlashga qaytariladi. O‘zbekistonda ham darsliklarni yangilashda ushbu “fin modeli”ni tatbiq etish, ya’ni matnlardagi gender balansini qat’iy nazorat qilish metodik jihatdan zarurdir. Zamonaviy metodika — darsliklarni shunchaki axborot manbai emas, balki tenglik qadriyatlarini targ‘ib qiluvchi instrument sifatida ko‘radi. Yangi avlod darsliklarida har bir mashq va “keys-study” jinslararo tenglikni, ayollarning fan va texnologiyadagi rolini e’tirof etishi, jamiyatning ijtimoiy ongi ijobiy tomonga o‘zgarishiga kuchli turtki beradi.

UNESCO (2017) va World Bank (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, STEM sohalarida ayollar ulushi kamligining asosiy sababi biologik farq emas, balki “matematika — erkaklar fani” degan ijtimoiy mifdir. PISA (Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi) natijalari shuni ko‘rsatadiki, teng sharoit yaratilgan muhitda qizlar va o‘g‘il bolalarning matematik savodxonligi o‘rtasida statistik farq yo‘q. Metodik taklif: Maktablarda “Girls in Tech” klublarini tashkil etish va ularni ayol-mentorlar (Fanlar akademiyasi olimlari, IT-mutaxassislar) bilan tizimli bog‘lash. Mentoring tizimining psixologik ahamiyati: “Ustoz-shogird” tizimi orqali muvaqqiyatli ayol olimlar bilan muloqot o‘rnatish qizlar uchun “tirik o‘rnak” (Role Model) vazifasini o‘taydi. Baholash jarayonida ham o‘qituvchining sub’ektiv qarashlaridan voz kechib, faqatgina o‘quvchining akademik natijalariga tayanishi ta’limda adolatli muhitni yaratadi. Bu mexanizm o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi “tabiiy qobiliyat” haqidagi asossiz miflarni parchalab, har ikki jins vakillarining fan cho‘qqilarini zabt etishlari uchun teng maydon yaratadi.

Quyidagi jadval shuni ko‘rsatadiki, ta’limda gender stereotiplarini bartaraf etish uchun faqatgina qonunlar yetarli emas. Buning uchun Finlyandiya kabi metodik aniqlik, Singapur kabi strategik rag‘bat va Shvetsiya kabi ijtimoiy jasorat talab etiladi.

<i>Davlat</i>	<i>Asosiy metodik yondashuv</i>	<i>O‘zbekiston uchun tatbiq qilish imkoniyati</i>
Shvetsiya	Gender-neytral muloqot va muhit	Bog‘cha va maktablarda bolalarni jinsi bo‘yicha ajratmaslik
Finlyandiya	Darsliklarning qat’iy gender ekspertizasi	Darsliklardagi tasvir va matnlarni to‘liq transformatsiya qilish

Singapur

STEM yo‘nalishida qizlarni Ayollar uchun texnologik
iqtisodiy rag‘batlantirish grantlar va mentorlikni
kuchaytirish

Xulosa o‘rnida shuni keltirib o‘tish joizki, “Gender tenglik” madaniyati maktab va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlik natijasida ham shakllanadi, chunki oila bolaning dastlabki ijtimoiy qoliplarini yaratuvchi makondir. Agar oiladagi qadriyatlar va maktabdagi ta‘lim bir-biriga zid bo‘lsa, bolada ichki kognitiv dissonans yuzaga keladi, shuning uchun bu ikki institutning maqsadlarini birlashtirish strategik ahamiyatga ega. Oiladagi “uy ishlari — ayollar uchun, pul topish — erkaklar uchun” degan qat’iy model bolaning kelajakdagi kasbiy ufqlarini toraytirib qo‘yadi. Shuning uchun oiladagi mehnat va mas’uliyat taqsimotini tenglik asosida tashkil etish, bolada har qanday kasbni egallash imkoniyati borligi haqidagi ishonchni mustahkamlaydi. Oliy ta‘limda “Gender psixologiyasi” kurslarining zaruriyati: Universitetlarda ushbu kurslarning joriy etilishi bo‘lajak mutaxassislarning (pedagoglar, rahbarlar, huquqshunoslar) gender tenglik haqidagi tushunchalarini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida qaror qabul qiluvchi shaxslarning stereotiplardan xoli bo‘lishini ta‘minlaydi. Ota-onalar bilan ishlashning strategik yo‘nalishlari: “Teng imkoniyatlar — porloq kelajak” mavzusidagi treninglar ota-onalarning qiz farzandlari ta‘limiga investitsiya kiritish bo‘yicha dunyoqarashini o‘zgartiradi. Ijtimoiy ong transformatsiyasi aynan ota-onalarning o‘z farzandlariga jinsi bo‘yicha emas, balki shaxsiy qiziqishlari bo‘yicha imkoniyat berishidan boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Egamberdiyeva M. va boshqalar. Ta‘lim tizimida gender tengligini ta‘minlash masalalari. Monografiya. – Toshkent: “Mahalla va oila”, 2024. – B.3-4.
2. Safarova R. va boshqalar. O‘quv jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy etishning pedagogik asoslari. Monografiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – B. 62-85.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Gender munosabatlari. Darslik. – Toshkent: "Sharq", 2018. – B. 142-160.
4. Bem S.L. The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. – New Haven: Yale University Press, 1993. – P. 112-135.
5. UNESCO. Cracking the code: Girls' and women's education in science, technology, engineering and mathematics (STEM). – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – P. 18-40.